

MA'SUMA QORIYEVANING O'ZBEK TEATRIDAGI O'RNI

*Ismoilova Fotima Izzat qizi
O'zDSMI 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada birinchi o'zbek aktrisasi Ma'suma Qoriyevaning hayot yo'li, ijodi hamda boy merosi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: repertuar, "Turon", ayollar, Karl Marks, dramaturgiya.

1902-yil Nizomiddin Sa'diyev va Nafisa Hisomova xonadonida Ma'suma Qoriyeva dunyoga keldi. U avval tatar qizlar o'quv maskanida, keyin rus-tuzem maktabida savod chiqardi. Duriya Boybo'latova, Asxab Nasizorvalar bilan dugona tutindi. Ular bilan birga ilmga intildi. Teatrqa qiziqish ham shu davrda boshlandi. U dugonalari Duriya, Sarvar, Maryamlar bilan birga havaskorlar truppasida qatnasha boshladи. Lekin bu osonlikcha bo'lmadи. Tatar qizlari garchi paranji ostida yurmasalar ham, shariatning ta'siri kuchli edi. Ma'suma avvaliga o'zining qiziqishlarini ota-onasidan sir tutdi. To'g'ri, xudojo'y otasi teatrlarga bormas, shu bois qizining qiziqishlaridan xabarsiz edi. Lekin kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi deganday, Nizomiddin aka mahalla oqsoqollaridan qizining o'zbek teatriga qatnashishini bilib qoladi. G'azabi jo'shib, qizini bu nojo'ya ishdan qaytarishga tushadi, koyiydi. Ammo onasi hamda o'qituvchilik qilayotgan opasi Fotima uni himoya qilishadi. Pochchasi Ibrohim Tohirov ham Ma'sumaning yonini olib, otasini ancha yumshatadi. Nizomiddin Sa'diyev tez orada qizi boshlagan ish hayrli ekanini anglaydi, uni asosiy rollarda ko'rib, chinakam qobiliyatli ekaniga ishonch hosil qilib, Ma'sumaning sahna faoliyatiga qarshilik qilmay qo'yadi.

1916-yilda Ma'sumaning hayotida unutilmas hodisa ro'y berdi, Ozarbayjonlik san'atkori Sidqi Ruhillo Toshkentga gastrolga keldi. Truppa ko'rsatgan spektakllar o'zbeklar orasida katta qiziqish uyg'otdi. Eng muhimi shuki, Sidqi ruhillo mahalliy ayollarni sahnaga chiqishga undaydi. Ruhillo Toshkentga Fuzuliyning mashxur "Layli va Majnun" dostoni zaminida kompozitor U.Hojibekov tomonidan yaratilgan "Layli va Majnun" musiqali dramasini avval nuqlul ozarbayjonlik artistlar ishtirotida, keyin o'zbek sahna havaskorlari ijrosida namoyish qiladi. Sidqi Ruhillo – Majnun, Nizomiddin Ho'jayev – Ibn Salom, Abdulla Avloniy – Amir rolida, xor va balet sahnalarida esa J.Karaganova rahbarligidagi balet studiyasining arman va rus talabaari qatnashdilar. Duriyaxonim Boybo'latova bilan Ma'suma Qoriyeva Laylo, uning dugonasi rollarini ijro etishadi. Ma'suma shu epizodik rol tufayli o'z taqdirini bir umr teatr bilan bog'laydi. Ma'suma Qoriyevaning sahnaga chiqishi o'z mazmuni bilan inqilobiy hodisa edi.

Ma'suma Qoriyevaning sahnadagi asosiy faoliyati "Turon" truppasida boshlandi.

1919-yili Karl Marks nomini olgan mazkur truppa va uning rahbari Mannon Uyg'ur yosh aktrisaga alohida g'amxo'rlik ko'rsatdi, unga bosh rollarni topshirdi. Negaki, hamon o'zbek sahnasida aktrisalar oz, ayollar rollarida erkaklar chaqirishardi. Bu taxchillar, ayniqsa Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Boy ila hizmatchi" asarini qo'lga olganda (1920) yaqqol sezildi. Jamila rolini endi erkak ijrochiga berib bo'lmasdi. Chunki, bir tomondan ijtimoiy dramaga putur yetgan bo'lardi, ikkinchi tomondan esa faqat ayol kishigina xalq orasidan chiqqan oddiy o'zbek ayolining fikr va hissiyotlarini sahnada teran va aniq tajassum etishi mumkin edi. Shu bois o'zbek sahnasida ayol obrazini talqin etish va ayol aktrisaning faoliyati bir mavzu, bir muammo bo'lib, ancha vaqtgacha kun tartibida turdi.

Yigirmanchi va hattoki, o'ttizinchi yillara xotin-qizlar rolida ayollar bilan barobar Yo'lchi Egamberdiyev, Hasan Ma'zumov, Hojimurod Mahmudbekov va boshqalar ishtirok etdilar. Ularni bir-birigaq qo'shib yuborish ham, ajratib qo'yish ham mumkin emas. Bu bir jarayon – sahnada ayol obrazini to'g'ri tasvirlash uchun olib borilgan dastlabki urinishlar edi.

Kezi kelganda shuni aytish kerakki, ayrim adabiyotlarda qaldirg'och aktrisalarning ijodi go'yo silliq borganday tasvirlanadi. Masalan, "O'zbek sovet teatri" kitobida M.Kuznesova 1918-yilda teatrga kelganda, "o'zbek tilini mukammal bilardi" deyiladi. Bu aktrisaning ulkan mehnatini yo'qqa chiqarishdir. Albatta, Mariya Kuznesova o'zbeklar orasida tug'ilib o'sgani uchun, Ma'suma Qoriyeva ham bilardi" degan gap emas. Mariya Kuznesova ham, Ma'suma Qoriyeva ham o'zbek sahna tilini o'zlashtirishda talay qiyinchiliklarga duch kelgan, ayniqsa M.Qoriyeva ko'p tanqidga uchragan. Zero, u hamma vaqt bosh qahramon rollarini ijro etgani uchun ham undan talab katta edi. M.Qoriyeva 20-yillarning boshlarida o'zbek ayoliga xos xattiharakatlarni, talaffuzni o'zlashtirishdagi mushkulotlarni bartaraf etish bilan mashg'ul bo'ldi.

Ma'suma Qoriyevaning ijodi 1916-yilda boshlanib, keyingi o'n yil mobaynida rivojlana boshladi va u shunchaki ijrochi emas, balki qahramon obrazlarni talqin etuvchi aktrisa sifatida shuhrat qozondi.

O'zbek teatr san'atining atoqli san'atkoriları esdalıkları va yigirmanchi yillar matbuoti materiallarida Ma'suma Qoriyevaning sha'niga aytilgan tanqidlarni uchratish mumkin. Uning hatto boshqa ayollarga qaraganda so'zlarni talaffuz etishda ko'p hatolarga yo'l qo'yishii haqida yoziladi: "Ma'sumada tuzalishi mumkin bo'lgan bir kamchilik bor: "Ajab olam" kabi aynli so'zlarni "g'ayn" bilan "g'azab g'alam" "emas" kalimasi o'rniga "tugil" qo'llab tatarchalashtirilmasa, sahnada chin o'zbek qizidan ajratib bo'lmaydi. Yorqinoy xolasining rolini o'ynaguchi Asxab tutash o'ynashi zararsiz, lekin har vaqt so'zlaganda ovozini sekin chiqarib, xalqni "qattiqroq" deb qichqirtadi. Ammo bunday tanqidlar Ma'sumaning san'atga bo'lgan ixlosini so'ndira olmadi. Aksincha, u kamchiliklarni yo'qotish uchun o'zida kuch-quvvat topa oldi.

Ma'suma 1918-1919-yillarda Karl Marks nomli truppada faol qatnashgan. U shu yillarda sahnalashtirilgan asarlarda uy bekasi ("Marat", A.Amnuel"), Marijon ("Qotili Karima", A.Mustafo"), dehqon ayol ("Na qonur, na qondirur", M.Kazimovskiy), Oftob ("Shoir va quyosh", E.Volniy) kabi rollarni ijro etgan.

Truppa rahbari Mannon Uyg'ur davr talabini yaxshi sezardi. "Qotili Karima" dramasining (A.Avlonyi tarjimasida) sahnaga qo'yilishi teatrning avvalo, o'z repertuarini axtarishidan, o'z uslubini topishga intilishidan dalolat beradi. Ma'lum bo'lishicha, pyesa XIX asrdagi fransuzlar hayotidagi olib yozilgan. Unda ikki yoshning ishq tufayli bir-biridan judo bo'lishi ko'rsatiladi. Mazkur spektaklda sevishgan ikki yosh obrazini Mannon Uyg'ur va Ma'suma Qoriyeva ijro etganlar. Marijon obrazi aktrisa mahoratining o'sishida ma'lum bir bosqich bo'ldi. Bu rol orqali aktrisa sahna sirlarini mukammalroq egalladi. Bu uning rolga nisbatan bo'lgan sinchkovligidan darak berardi. Shuning uchun ham matbuot uning ijrosiga yuqori baho berdi: "Marijon rolida M.Hisomiddinova har so'zni anglab, o'ziga munosib vaziyat ila o'yinni oxirigacha olib bordi. Bu artistkaning grim, qiyofasi va maneralari ham, kiyimlari ham g'oyat yaxshi edi..."

Ma'suma Qoriyeva qator obrazlar orqali yovuzlik va zo'ravonlikka qarshi, shaxsiy va ijtimoiy ozodlik uchun kurashga dav'at etuvchi dramaturgiyaga o'z munosabatini bildirishga intildi. Hamza Hakimzoda Niyoziy dramaturgiyasining, markaziy ijtimoiy tengsizlikka qarshi kurash, ayollar ozodligi masalalari ishg'ol etgan.

20-yillarda Karl Marks nomidagi truppa tomonidan sahnalashtirilgan Hamzaning "Zaharli hayot", "Boy ila hizmatchi", "Tuhmatchilar jazosi", "Iffat qurbanlari" va boshqa shu kabi asarlarning sahnalashtirilishi umumo'zbek teatri uchun xos bo'lgan aktrisalarni tarbiyalab yetishtirish va ayollar muammosini tezda hal etishni taqozo etardi. Shuningdk, ayollar ozodligidek murakkab masalani yoritish teatrning oldida turgan muhim vazifalardan biri edi. Bu esa o'z navbatida aktrisalar yetishtirish va ayollarni tomosha zaliga tortish masalasiga borib taqalardi. Ushbu masalani hal qilish oson emasdi. Hamza tomonidan ustalik bilan tasvirlangan ayollar obrazlari Uyg'ur rahbarligidagi teatr sahnasiga ma'suma Qoriyeva talqinida kirib keldi. Postanovkalar va obrazlar talqinida Uyg'ur bilan bir qatorda Hamza Hakimzoda Niyoziyning ham ko'magi ahamiyatli bo'lgan edi. Yuqorida aytilganidek, tarixiy sharoitga ko'ra o'sha davrda ayollar rolini erkaklar ijro etishgan. Buni matbuot sahifasidan bilishimiz mumkin. Chunki "Ishtirokiyun" gazetasi quyidagicha yozgan edi: "Hizmatchining xotini (Jamila- D.M) rolidagi H.M(Hasan Mag'zumov – D.M) afandining ohang va talaffuzi xotinlarni tabiiy musiqaviy ovozini bu navbatda durustgina ifoda eta olsa ham, zahar ichib qiynalib jon berdi". Ko'rinish turibdiki, ayol ehtirosini talab qiluvchi sahna yaxshi chiqmagan. Xolbuki, bu sahna pyesaning va spektaklning eng ta'sirli joylaridandir. Demak, erkak ijrochilar Jamila obrazini maromiga yetkaza olmaganlar. Binobarin, Maryam va Jamila kabi markaziy rollarni faqat ayol ijrochilar bajarsagina

asar g'oyaviy mazmuni to'la-to'kis ochilishi, aks holda mazmunga putur yetishi mumkinligi kunday ravshan bo'lib qolgan edi. Shu bois Hamza bilan Uyg'ur qanday qilib bo'lmasin bu rollarni o'z egalariga topshirish uchun kurashdilar. Hamzaning "Boy ila xizmatchi" asaridagi Jamila rolini ayollardan birinchi bo'lib Marusya Kuznesova o'ynadi. Albatta, u Jamilaning boy hissiyotini, chuqur iztiroblarini to'la aks ettirdi, obraz yo'naliшини to'g'ri belgiladi deb bo'lmaydi. Bu tabiiy, chunki ilk qadam edi. Ma'suma Qoriyevada obraz lirik planda to'g'riroq talqin etildi, chunki aktrisaning imkoniyatiga juda mos tushgan edi. Abdurahmon Akbarov va Muzaffar Muhamedovning guvohlik berishicha, teatrning Farg'ona vodiysi bo'ylab uyushtirilgan gastrollari paytida "Boy ila hizmatchi" spektaklining rollari taqsimlangan. Jamila roli Qoriyevaga topshirilgan. Garchi spektakl front sharoitida tayyorlangan bo'lsa-da, Ma'suma Jamilaning ehtiroslarini chuqurroq va uning kechinmalarini nozikroq aks ettirgan. U Hamzaning birinchi sahna asari "Zaharli hayot"da Maryamxon obrazini gavdalantirdi. Ma'lumki, "Zaharli hayot" jamiyatning boy va kambag'al qatlamiga mansub bo'lgan ikki oshiqning fojiali muhabbatি haqida hikoya qiladi. O'qimishli Mahmudxon yaxshigina savodxon, oqila, biroq kambag'al qiz Maryamni sevib qoladi. Ular qovusha olmaydilar. Negaki, u boyvachcha, Maryam esa past tabaqadan, buning ustiga eshonga nazir qilingan. O'sha davrdagi ko'pgina pyesalarning qahramonlari singari Maryam kurashning tashabbuschisidir.

Maryam obrazi Ma'suma Qoriyeva talqinida zakovatli, quvnoq ayol. Biroq uning qalbida qandaydir tug'yon, bezovtalik borligi seziladi. Ammo niyatini qat'iyat va jur'at bilan amalga oshirishda sira chekinmaydi. Qoriyeva yaratgan qahramonlar xotin-qizlar baxti, ularning eskilik dunyosi bilan kelishmasligi, eng yuksak maqsad uchun astoydil va oxirigacha keskin kurash olib boruvchi ayol timsoli bo'ldi. Ma'suma professional bilimga ega bo'lmasa-da, o'z mahoratini roldan-rolga oshirib bordi. Bu borada u ko'proq Mannon Uyg'ur saboqlariga, obraz ustida ishlash jarayonidagi kashfiyotlarga suyandi. Uyg'ur, truppada iste'dodli aktrisalar kam bo'lgani uchun uni ehtiylotladi, asta-sekin sahna sirlari bilan oshno etib bordi.

Zamon nafasi ufurib turgan, mahorat bilan yozilgan "Halima" (G'ulom Zafariy) spektaklining muvaffaqiyatli chiqishida truppada kundan-kunga, spektakldan-spektaklga, plastika va ritm sirlarini tobora kengroq ochib borayotgan Ma'sumadek aktrisaning borligi kata rol o'ynadi. "Halima" spektakli faqatgina aktrisaning emas, balki umumo'zbek sahnasining katta g'alabasi bo'ldi. Bu spektaklda bosh qahramon – Halima obrazini yaratgan Ma'suma elning eng sevimli san'atkori deb tan olindi. Garchi spektaklning premyerasida Halima rolini ilk bor Duriya Boybulatova ijro etgan va "bu xonimning butun tebranishlari o'z yerinda" bo'lishiga, o'zbek ashulalari olqishlanurlik darajada go'zal ham chiroylik deb aytilganiga qaramay, Uyg'ur spektaklning ikkinchi premyerasiga Ma'sumanı tayyorladi. Chunki D.Boybo'latova ijrosida obrazning mohiyati yetarli ochilmagan, buning ustiga Halima qismatidagi dard tomoshabin

qalbiga borib yetmagan edi. Ma'suma Qoriyeva esa o'z qahramonining faqatgina his-tuyg'ularini chuqur tasvirlash bilan kifoyalanmay, o'zbek xotin-qizlarining azaliy orzusi – ichkari asoratidan qutilish, buning uchun kurashish kerak, degan g'oyani targ'ib qildi.

Tomoshabinlar ommasi va matbuot Qoriyevani Halima rolida zo'r mammuiyat bilan kutib oldilar. Ammo aktrisaning zimmasiga talaffuz me'yoriga rioya qilish, obraz hatti-harakatidagi o'zbek ayollariga xos bo'limgan elementlardan qutulish, mahoratni oshirish singari talablar ham qo'yildi. Aktrisa bu masala ustida jiddiy ish olib bordi. O'zbek teatri san'atida "Halima" spektakligacha hayotni chinakam tasvirlash, uning voqealarini tabiiy gavdalantirishga, asar g'oyasini ochishga alohida ahamiyat berilgan bo'lsa, "Halima" spektaklidan e'tiboran inson kechinmalarini ko'rsatishda jiddiy izlanishlar olib borildi. Natijada, asar qahramonining fojiali ahvoli ishonarli ko'rsatildi. G'ulom Zafariyning dramasi o'zbek ayolining eng og'ir, eng fojiali hayotini tasvirlovchi drama sifatida baholangan. Ma'sumaning talqini asarni shunday tushunishga yordamlashadi. Premyeradan so'ng o'tgan bir yarim yil mobaynida Ma'suma Halima rolini deyarli beto'xtov o'ynadi. Teatrda tomoshabinlarning keti uzilmadi.

O'lka Namuna truppassi 1921-yilda G'ulom Zafariyning bir pardali "Erk bolalari" va "Tuyg'unoy" asarlarini sahnalashtirdi. Ma'suma Oyxon va Tuyg'unoy timsollarini gavdalantirdi. Teatr guruhi va Mannon Uyg'ur shu ikki asar zaminida o'z syujet hamda g'oyaviy yo'naliishiga ega bo'lgan bir pardali spektakl yaratdi. Mazkur spektakl erkin muhabbat, yigit va qizlar o'rtasidagi mutlaqo yangicha munosabatlarni namoyish etdi. "Erk bolalari" da yosh, zabardast yigit Turg'un – Abror Hidoyatov o'z sevgilisini bezovtalanib qishloq chekkasida kutadi. U yo'q. Tabiatdagi osoyishtalik uning bezovta ko'nglini tinchlantira olmaydi. Qushlarning yoqimli sayrashlari oshiq yigitning dilini yanada to'lqinlantirib yuboradi. Uni o'zga olam og'ushiga olib kiradi. Shu payt sevgilisi ko'rindi. Yigit o'z ma'shuqasiga peshvoz chiqadi. Quvonchdan ko'zlari porlagan Turg'un – Hidoyatov Oyxon – Qoriyeva bilan uchrashadi. Ular bir-birlariga muhabbat izhor qiladilar. Shu payt Turg'un bilan Oyxonni izlab yurgan yoshlar kelib qolishadi. Spektakl barchanining shodu-hurramligi bilan tugaydi.

O'z navbatida Ma'suma professionalizm yuzasidan og'ishmay izlanish olib boradi va teatr ijodiyotidagi o'z o'rmini aniq belgilab oladi. Teatr asta-sekin milliy qiyofalarni badiiy barkamol ifodalashga o'tadi, Ma'suma ham o'z mahoratini oshirish, badiiy yuksak timsol yaratish maylini namoyish etadi. Bunga shu yillari matbuotda teatr va yosh ijrochilar sha'niga aytilgan tanqidiy fikrlar turtki beradi. Ma'suma milliy xarakter yaratish borasidagi izlanishlarini davom ettirib, dramaturg Cho'lponning "Yorqinoy" dramasidagi bosh qahramon – Yorqinoy obrazini yaratdi. 1921-1927-yillar mobaynida bir necha bor qo'yilgan "Yorqinoy" spektakli eksperimental ahamiyatga ega bo'lib, ikki pardali dramadan besh pardalikka aylandi: Ma'suma bu

sahna asarlarining barchasida bosh qahramon obrazini yaratdi. Ana shu uzluksiz izlanish uning tragik aktrisa sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Aktrisa “Yorqinoy” spektaklida ham “Halima”dagidek bosh qahramon ayoldir. Ammo ular ijtimoiy va siyosiy mavqeい jihatidan bir-biriga sira o’xshamaydigan qahramonlardir. Pyesa g’oyaviy mazmuni va tasviriy yo’nalishi jihatidan teatrni tragediya janriga amal qilishga undaydi.

Ma’suma Qoriyeva va uning yosh safdoshlarini talqin san’atiga o’rgatish, avvalo teatrning, xususan uning rahbari Mannon Uyg’ur amalga oshirgan muhim tadbirlardan biri bo’ldi. Bu o’zbek sahnasida ayollar tasvirini talqin etish yuzasidan olib borilgan izlanishlar dialektikasini ko’rsatadi. Bu izlanishlarni aktrisaning boshqa rollari ham ko’rsatmoqda. Chunonchi Fitrat asarlarida yaratgan obrazlari ham e’tiborga molik. Bular “Chin sevish”dagi Zulkumor, “Xind ixtilochilar”dagi Dilnavoz va “Abo Muslim”dagi Marv beginning qizidir. Gazeta ma’muriyati tomonidan yozilgan maqolada “Chin sevish” asarining janri “Ishqiy, hissiy fojia” deb belgilangan. Demak, Ma’suma Fitrat asarlarida tom ma’nodagi dramatik obrazlar yaratgan. “Qalandar” (“Turkiston” gazetasi, 1992-yil, 21-dekabr, 39-sonida), “Turg’unboy” (“Turkiston” gazetasi, 1924-yil, 21-noyabr, 387-sonida) ismli tanqidchilar Ma’sumaning Marv begining qizi rolini yaxshi o’ynaganini va “sahnada yangi ko’rilgan kuch, iste’dodi” borligini ta’kidlaydilar. Cho’lpon o’z maqolasida Qoriyeva – Zulayxoning ijobiy tomonlarini gapirib, aktrisa mahoratini o’stirish uchun unga yanada harakatchanroq va ta’sirchanroq rollarni topshirish kerakligini uqtiradi.

O’zbek teatri sahnasida rus va jahon dramaturgiyasi talqini o’zlashtirishda Ma’suma Qoriyevaning o’rni katta. 1921-yili Fridrix Shillerning “Makr va Muhabbat” dramasi qo’yildi. Spektakl o’zbek teatrining jahon klassikasiga ilk bor murojaat etishi edi. Shiller pyesasiga teatr katta ma’suliyat va ehtiyyotkorlik bilan yondoshdi. Uni mashxur rejissor Kamol I sahnalashtirdi. Kamol I “Makr va muhabbat” ni bundan avval tatar teatridda sahnalashtirib tajriba orttirgan edi. Teatr Luiza rolini Ma’sumaga topshirdi. Bundan tashqari, Ma’suma va teatr Shillerning yana bir asari “Qaroqchilar” tragediyasiga murojaat etadi. U 1923-yili Mannon Uyg’ur sahnalashtirgan ushbu asarda Amaliya rolini ijro etar ekan, obraz mohiyatini tez ilg’aydi. Ma’suma klassik dramaturgiya talqinida yetakchi san’atkor ekani aniq sezildi. Teatr o’z repertuarini yanada kengaytirar ekan, g’arb dramaturglari Dyukanj, Merime va Djakometti asarlarini sahnalashtirdi. Ma’suma “Qimorbozning hayoti”da qiz, “Shayton ayol”da ayol va “O’z qizining qotili”da Rozaliya obrazlarini yaratdi. G’arbiy Yevropa repertuari Ma’sumaga yangi ijod manbai bo’ldi. Chunki yigirmanchi yillarning ikkinchi yarmida, hatto o’ttizinchchi yillarda ham ayol aktrisalar orasida rus va g’arbiy yevropa dramaturgiyasini Ma’sumachalik o’zlashtirgan aktrisa kam topilar edi. Biroq, shuni ham ta’kidlash kerakki, barcha drama aktyorlarining ashulachilik mahorati talab darajasida emasdi. Shunga qaramay, Ma’suma yuqorida tilga olingan rollar bilan bir

qatorda “Arshin mol olon”, “Layli va Majnun”, “Farxod va Shirin” musiqali dramalarida ham bosh rollarni ijro etgan.

Aktrisa o’zbek sovet teatrining birinchi o’n yillik davrida yetakchi aktrisa sifatida maydonga chiqdi. 1927-yilning ikkinchi yarmidan e’tiboran u o’zbek davlat truppasiga to’la o’tib ishlay boshladi. Buning ustiga o’zbek teatri jonkuyarlaridan bo’lmish Bosit Qoriyevning unga ham umr yo’ldoshi, ham partnyor bo’lishi Ma’suma uchun ancha qulaylik yarattdi. San’atkor 1923-27-yillar mobaynida badiiy havaskorlik to’garaklariga rahbarlik qildi va o’zbek sahnasida rejissor bo’lib ishladi. Moskva va Bokudan kelgan yosh o’zbek aktrisalari uchun o’zbek ayolining barkamol xarakterini sahnada yaratish yechilmagan muammo edi. Chunki ular bu sohada ham hech qanday tajribaga ega emasdilar. Bu, avvalo, 20-yillar o’zbek teatrida ayollar obrazini ayol ijro etmagani bilan izohlanadi. Ma’sumaning sahna tajribasi esa sahnaga endi qadam bosayotgan yosh o’zbek aktrisalarining milliy xarakter yaratishlari, umumiy talqin jarayonini yaxshilashlari uchun maxsus mакtab vazifasini o’tadi. Shunday qilib, Ma’suma 1916-1927-yillar mobaynida aktyorlik san’atini boshlab bergen va ijro san’atini yuksak pog’onalarga ko’targan zahmatkash ayol ijodkorlardan biri bo’lib qoldi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Ma’suma sahnada Tursunoy Saidazimova, Sora Eshonto’rayeva va Halima Nosirovalar paydo bo’lgunga qadar teatr repertuarida bosh qahramon rollarini izchil ijro etgan birinchi aktrisadir.

Dramaturg Komil Yashin zamonning ulkan masalalarini hal etishda qahramon ayollar oz emasligini ko’rsatadi. U O’lmasoy (“Yondiramiz”) obrazini yangi xo’jalik, yangi turmush, yangi avlod uchun kurashayotgan ayol kabi tasvirlaydi. Ma’suma O’lmasoy tasvirini ifodalar ekan, uni ishchan, chaqqon, komsomol faolasi sifatida xarakterlaydi. U dadil qadam bilan hayotga kirib kelar ekan, o’z huquqini, dunyoqarashini, e’tiqodini himoya qiladi va shu tarzda faol o’rin egallaydi.

30-yillarda o’zbek teatri sahnasida rus dramaturglarining revolyutsiyaga bag’ishlangan qator asarlari qo’yildi. Ma’suma “Mening do’stim” (1934) da Kseniya Ivanovna, “Qamal” da (1934) Orlovskaya, “Lyubov Yarovaya” da (1937) Pavla Petrovna kabi keskin xarakterli rollarni o’ynadi. Ushbu rollarni ayrim jihatdan bir-biriga o’xshash desa bo’ladi. Chunki bu obrazlarning har biri chin inson, haqiqiy inqilobchi, Bolshevik va tashkilotchi sifatida gavdalandi. Ma’suma har birining xarakteriga mos xislatlar topa bildi.

Ma’suma uzoq yillar mobaynida o’zi ijro etgan qahramonlarga o’zi libos topgan, ularning tashqi qiyofasini ham grimchi-rassom sifatida o’zi tasvirlagan. Aktrisa o’sha paytda rasm bo’lgan charm kamzul, qora yubka va qizil ro’mollarni ramz darajasigako’tardi. Ma’suma o’z bisotidagi bu kiyimlardan ahyon-ahyonda foydalanar edi. Bu bilan qahramonlarning oddiy xalq vakili ekanini ta’kidlardi.

San’atkor faqat ijobiyl qahramonlar qiyofasini yaratish bilan chegaralanmasdan salbiy personajlar xarakterini ham bekami-ko’st ochib bera olgan. Jumladan, u Gorkina

obrazida o’z kuchini sinab ko’rgan. Zinnat Fathullinning “Sotqinlar” dramasi yosh jumhuriyatning ichki dushmanlarini fosh etishga bag’ishlangan.

30-yillarning oxiri aktrisa faoliyatida eng sermahsul davr bo’lib, u Gertruda (“Hamlet”, Shekspir, 1935), Varvara (“Egor Bulichev va boshqalar”, M.Gorkiy, 1939), Emiliya (“Otello” Shekspir, 1941) kabi qator obrazlar yaratdi. Urush yillari mobaynida esa Ma’suma qator onalar obrazini yaratdi. Bular “Xolisxonning onasi Hoja (“Xolisxon”, Hamza), Eshonoyi (“Hamza”, K.Yashin, A.Umariy), ona (“Ona”, Uyg’un) kabilardir.

Ma’suma Qoriyeva, artistlikni o’ziga kasb qilib, hayotini san’atga baxsh etgan temir irodali insondir. U Vatanga beminnat xizmat qilishning ramzidir. San’atkor o’tmishning achchiq qismatini ro’yi-rost ohib bera olgan, yangi davrni to’la aks ettirgan. U, oliyjanoblik, hayrixoxlik, insonparvarlik kabi fazilati bilan do’stlarining muhabbatini qozondi, yosh ijrochilarga boy ijodiy tajribasini o’rgatuvchi bag’ri keng ustoz aifatida tanildi. Aktrisani yoshligida erkabal, “Ma’suma tutash”, keyinchalik “Ma’suma opa”, ba’zilar esa uni hatto “Ona” deb atashardi. Haqiqatdan u o’zbek aktyor va aktrisalarining mehribon onasi bo’lib qolgandi.

Ma’suma Qoriyeva 1937-yilda Moskvada bo’lib o’tgan o’zbek adabiyoti va san’atining birinchi dekadasi munosabati bilan “O’zbek Davlat musiqali teatri” (hozirgi Alisher Navoiy nomidagi Davlat Akademik Katta opera va balet teatri) tayyorlagan “Gulsara” musiqali dramasini sahnalashtirishda ikkinchi rejissor sifatida ishtirok etdi. Yosh artistlar avlodining ulg’ayishida Mannon Uyg’ur, Yetim Bobojonov, Javod Obidov, Qudrat Ho’jayev, Sa’di Tabibullayev, Nazira Aliyeva bilan birga Ma’suma Qoriyevaning ham xissasi katta. Ma’suma Qoriyeva sahnadagi amaliy-ijodiy ishga pedagoglikni qo’shib olib borib, ko’p yillar mobaynida orttirgan boy tajribasini Abulqosim Loxutiy nomidagi teatr texnikumida bo’lajak san’atkorlarga o’rgatdi.

1939-yil Hamza Hakimzoda Niyoziy vafotiga o’n yil to’lishi munosabati bilan uning “Boy ila xizmatchi” pyesasi Komil Yashin tahriri bilan qaytadan sahnalashtiriladigan bo’ldi. Uni rejissor Yetim Bobojonov sahnalashtirdi. Lekin rol taqsimotida Ma’sumaning nomi chiqmadi. Xuddi shu yili Katta Farg’ona kanaliga teatr ham yo’l olgandi, lekin boradiganlar ro’yxatida Ma’sumaning nomi yana chiqmadi. Demak, uni chetlashtirish haqida buyruq berilgan. Unga siyosiy maxbus deb qaralar, “xalq dushmani” ga chiqarishgan edi. Bir muddatdan so’ng N.V.Ladigin teatrga rejissor bo’lganidan so’ng, M.Uyg’ur iltimosiga binoan Ma’suma yana sahnaga qaytadi. Ma’suma Qoriyeva ijtimoiy hayotda ham mard o’zbekayolining timsolidir. U ikki-farzandini – mamlakatimizning munosib fuqarosi etib tarbiyaladi. Eriga otilgan ta’na toshlaridan qutulishar balki deb, o’g’illarini urushga jo’natadi. Lekin farzandlaridan ajrab qolganidan so’ng dard, qayg’u, alam uning salomatligini ishdan chiqardi. U hattoki, sahnaga ham chiqolmay qoldi. Eri va o’g’illaridan xabar

bo’lmaqach uning o’zi Moskvaga yo’l oldi. Eri otilgani, o’g’illarini halok bo’lganini eshitgach ahvoli yanada yomonlashdi. Moskva shifoxonasida uzoq davolanish ham foyda keltirmadi. Bedavo dard uni sahnadan va hayotdan yulib oldi. Ma’suma 1946-yil 18-aprelda sil kasalligidan vafot etdi. O’zbek teatrining darg’asi Mannon Uyg’ur qaldirg’och aktrisalardan biri Ma’suma haqida kuyunib shunday degan edi: “Butun umrini, butun iste’dodini, butun ijodini xalq uchun sarf etgan ayol odamga o’lim yo’q. Uning xotirasi xalqda abadiy yashaydi. Xalq o’zining sevimli san’atkori, aziz, vatanparvar farzandini hech qachon unutmaydi. Vatanga vijdongan xizmat qilgani uchun hukumat unga birinchilar qatori “O’zbekiston SSR da xizmat ko’rsatgan artist” (1933) faxriy unvonini berdi, “Mehnat qizil bayroq” ordeni (1937) bir qancha medallar, faxriy yorliqlar bilan taqdirladi.

Foydalaniqan adabiyotlar:

1. Muhammadali Abduqunduzov, Muslimbek Yo’ldoshev “O’zbek milliy akademik drama teatrining ijodkorlari”
2. Zikir Muhammadjonov “Qalbdagi o’chmas izlar”
3. D.Musayeva “Ikki qaldirg’och”